


Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



AVGUST 2026, 5-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 5

BUXORO – 2026

NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI

Akramova Surayo Renatovna, Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti (PhD)

<https://orcid.org/0000-0003-4115-6493>
suraeww1984@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada nutqiy aktlarni aniqlash va tavsiflashda qo'llanadigan lingvopragmatik hamda antroposentrik mezonlarning o'zaro munosabati yoritiladi. Nutqiy birlikning grammatik tuzilishi uning real kommunikativ vazifasini har doim ham to'liq belgilab bermasligi sababli pragmatik tahlilda so'zlovchining maqsadi, adresatning maqomi, vaziyat, kontekstual shartlanganlik, baholash munosabati va interpretativ imkoniyatlarni birgalikda hisobga olish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda nutqiy aktni identifikatsiya qilishning formal-semantik, intentional-kontekstual, adresativ va aksiologik-antroposentrik mezonlari o'zaro farqlanadi. Badiiy nutq materiallari asosida imperativ, interrogativ va deklarativ tuzilishlarning pragmatik mazmuni grammatik shakldan kengroq bo'lishi, ayni shakl turli kommunikativ sharoitlarda boshqa-boshqa illokutiv yo'nalish kasb etishi ko'rsatiladi. Shuningdek, poetik vosita, emotsional-baholovchi mazmun va kommunikativ natijani nutqiy aktning fundamental turi bilan tenglashtirish tasnifiy noaniqlikka sabab bo'lishi qayd etiladi. Natijada nutqiy aktning pragmatik maqomini aniqlashda lisoniy ko'rsatkichlar bilan inson omiliga daxldor parametrlarni birlashtiruvchi ko'p mezonli tahlil tamoyili taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, lingvopragmatika, antroposentrizm, kommunikativ intensiya, illokutiv maqsad, adresant, adresat, kontekst, pragmatik inferensiya, aksiologik munosabat, badiiy diskurs.

Аннотация. В статье рассматривается соотношение лингвопрагматических и антропоцентрических критериев, используемых при выявлении и характеристике речевых актов. Обосновывается, что грамматическая структура высказывания не всегда однозначно определяет его реальную коммуникативную функцию, поэтому прагматический анализ требует комплексного учёта коммуникативной цели говорящего, статуса адресата, ситуации общения, контекстуальной обусловленности, оценочной позиции и интерпретационных возможностей высказывания. В исследовании разграничиваются формально-семантические, интенционально-контекстуальные, адресатные и аксиолого-антропоцентрические критерии идентификации речевого акта. На материале художественной речи показано, что императивные, вопросительные и повествовательные конструкции могут приобретать прагматическое содержание, выходящее за пределы их грамматической формы, а одна и та же формальная модель в зависимости от коммуникативной ситуации способна выражать различную иллокутивную направленность. Отмечается также необходимость разграничения типа речевого акта, поэтического средства, эмоционально-оценочного содержания и функционального результата. Предлагается многоаспектный принцип анализа, объединяющий языковые показатели с параметрами, связанными с человеческим фактором в коммуникации.

Ключевые слова: речевой акт, лингвопрагматика, антропоцентризм, коммуникативная интенция, иллокутивная цель, адресант, адресат, контекст, прагматическая инференция, аксиологическое отношение, художественный дискурс.

KIRISH. Tilning kommunikativ tabiati haqidagi zamonaviy qarashlar nutqiy birlikni faqat muayyan mazmunni ifodalovchi grammatik tuzilma sifatida emas, balki inson tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli harakat sifatida tushunishni taqozo etadi. Muloqot jarayonida gapirishning o'zi axborot uzatish bilan yakunlanmaydi: adresant biror hodisani tasdiqlaydi yoki inkor etadi,

adresatni ma'lum harakatga undaydi, munosabatini bildiradi, majburiyat oladi, baholaydi yoki muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni muayyan yo'nalishga soladi. Shu sababli nutqning pragmatik qiymati lisoniy shakl bilan kommunikativ harakat o'rtasidagi munosabatni aniqlash orqali yuzaga chiqadi.

Nutqiy akt nazariyasining shakllanishi til birliklarini ana shunday faoliyat nuqtayi nazaridan tushuntirish imkonini berdi. J.L. Austin tomonidan nutqning harakat bajarish xususiyatiga e'tibor qaratilishi, keyinchalik J.R. Searle tomonidan illokutiv harakatlarning tizimlashtirilishi pragmatolingvistika taraqqiyotida muhim metodologik burilish yasadi. H.P. Grice, S. Levinson, K. Bach, R. Harnish va boshqa tadqiqotchilarning kommunikativ niyat, implikatura, kontekst va inferensiya haqidagi qarashlari esa nutqiy akt mazmunini faqat grammatik struktura doirasida tushuntirishning yetarli emasligini ko'rsatdi. Natijada kommunikativ maqsadni anglashda til shakli bilan bir qatorda muloqot ishtirokchilari, umumiy bilim fondi, vaziyat va kontekstning roli ham muhim ekanligi ayon bo'ldi.

Nutqiy aktlarni tasniflashda ham ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Formal tuzilish bilan pragmatik vazifaning aynan mos kelishi barcha nutqiy vaziyatlarga xos emas. Masalan, buyruq maylidagi fe'l har doim qat'iy buyruqni anglatmaydi. U maslahat, iltimos, iltijo, ogohlantirish, ezgu istak yoki rag'batlantirish kabi turli kommunikativ ma'nolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, so'roq shaklidagi gapning vazifasi ham doimo yangi ma'lumot olish bilan chegaralanmaydi. Ayrim kontekstlarda so'roq shakli e'tirozni kuchaytiradi, adresat pozitsiyasini sinovdan o'tkazadi, fikrga urg'u beradi yoki baholovchi munosabatni bilvosita ifodalaydi. Demak, grammatik konstruksiya nutqiy akti aniqlash uchun muhim signal bo'lsa-da, uni yakka holda hal qiluvchi mezon sifatida qabul qilish mumkin emas.

Muammoning yana bir tomoni nutqiy akt tasnifida turli sathlarga mansub tushunchalarning bir-biriga yaqinlashtirilishi bilan bog'liq. Nutq jarayonida faxrlanish, achinish, e'tirof etish, nasihat qilish, xotirlash, qoralash yoki olqishlash kabi ma'nolar mavjudligi shubhasiz. Biroq ularning barchasini bir xil nazariy maqomdagi mustaqil illokutiv sinflar sifatida qabul qilish tasnif mezonlarining barqarorligini susaytiradi. Chunki ayrim birliklar harakatning kommunikativ turini, ayrimlari uning semantik tusini, boshqalari esa adresantning emotsional yoki aksiologik pozitsiyasini ifodalaydi. Yana bir guruh tushunchalar nutqiy harakat natijasida badiiy matnda hosil bo'ladigan funksional vazifani bildiradi.

Shu jihatdan nutqiy akti aniqlashda “qanday shakl ishlatilgan?” degan savol bilan birga “bu shakl orqali qanday kommunikativ ish bajarilmoqda?” degan savolni ham qo'yish zarur. Mazkur ikki savolning farqlanishi pragmatik tahlilning metodologik aniqligini ta'minlaydi. Birinchi savol lisoniy tuzilishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi adresantning kommunikativ niyati va uning adresatga nisbatan egallagan pozitsiyasini aniqlashga xizmat qiladi.

Badiiy nutqda mazkur munosabat yanada murakkablashadi. Chunki poetik matnda nutqning bevosita ishtirokchilari kundalik dialogdagi so'zlovchi va tinglovchi bilan aynan bir xil maqomda bo'lmaydi. Lirik subyekt, poetik adresant, matn ichidagi adresat hamda real o'quvchi turli kommunikativ sathlarga mansub bo'lishi mumkin. Natijada birgina murojaat shakli ham matn ichida konkret shaxsga yo'naltirilgan bo'lsa, diskurs sathida umumlashgan o'quvchini ham kommunikativ jarayonga jalb qilishi mumkin. Bu esa badiiy nutqiy akti tahlil qilishda adresat masalasini alohida parametr sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.

Poetik diskursning obrazlilikka asoslangan tabiati ham formal va pragmatik ma'no munosabatini murakkablashtiradi. Metafora, o'xshatish, antiteza, takror, personifikatsiya, undalma yoki ritorik konstruksiyalar muayyan kommunikativ mazmunning ta'sirchanligini oshiradi, biroq ularni bevosita nutqiy akt turi sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Bunday vositalar ko'proq illokutiv yo'nalishning anglanishi, emotsional kuchayishi yoki aksiologik xoslanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, nutqiy akt tahlilida harakatning pragmatik maqomi bilan uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy vosita o'rtasidagi chegarani saqlash zarur.

Nutqiy aktga antroposentrik yondashuv masalani yana bir pog'ona chuqurlashtiradi. Ushbu

yondashuvda muloqot markazida abstrakt grammatik tuzilma emas, balki maqsad va qadriyatlarga ega inson turadi. Adresantning kommunikativ tanlovi uning voqelikka munosabati, adresat haqidagi tasavvuri, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan bog'lanadi. Adresat ham nutqiy ta'sirni passiv qabul qiluvchi emas; u kontekst, umumiy bilim va inferensial faoliyat vositasida ifodaning pragmatik mazmunini tiklaydi. Shuning uchun nutqiy aktning antroposentrik tahlili "kim gapirmoqda?" va "kinga gapirmoqda?" savollaridan tashqari "qanday kommunikativ ehtiyoj nutqni yuzaga keltirdi?", "adresant qanday munosabatni namoyon qilmoqda?" va "adresat mazmunni qaysi asosda angelaydi?" kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Bu holat nutqiy akti aniqlashda yagona universal markerga tayanishdan ko'ra, mezondosh belgilar majmuasi bilan ishlash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvda grammatik qurilish dastlabki signalni beradi, leksik-semantik tarkib propozitsional asosni aniqlashtiradi, kontekst kommunikativ vaziyatni chegaralaydi, adresant intensiyasi esa harakatning pragmatik yo'nalishini belgilashga yordam beradi. Adresatga yo'naltirilganlik va baholovchi munosabat esa nutqiy harakatning insoniy hamda aksiologik xususiyatlarini ochadi. Bu omillarning bir-birini tasdiqlashi yoki to'ldirishi natijasidagina muayyan illokutiv mazmun haqida asoslangan hukm chiqarish mumkin.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda nutqiy akti aniqlash mezonlarini shartli ravishda to'rtta o'zaro bog'langan guruhda ko'rish maqsadga muvofiq deb qaraladi: formal-semantik mezonlar, intentional-kontekstual mezonlar, adresativ-kommunikativ mezonlar hamda aksiologik-antropotsentrik mezonlar. Birinchi guruh nutqiy birlikning grammatik va semantik qurilishini, ikkinchisi kommunikativ maqsadning vaziyat bilan munosabatini, uchinchi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi yo'nalishni, to'rtinchisi esa nutqda namoyon bo'ladigan baho, qadriyat va insoniy pozitsiyani aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi nutqiy akti pragmatik jihatdan identifikatsiya qilishda lingvopragmatik va antroposentrik mezonlarning funksional imkoniyatlarini aniqlash, ularning o'zaro munosabatini tizimlashtirish hamda badiiy nutq tahlilida qo'llashning metodologik tamoyillarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning konseptual farazi shundan iboratki, nutqiy aktning pragmatik maqomi alohida olingan grammatik yoki leksik ko'rsatkich orqali emas, balki lisoniy shakl, kommunikativ niyat, kontekst, adresativ yo'nalish va aksiologik pozitsiyaning o'zaro moslashuvi orqali ishonchli aniqlanadi. Mazkur yondashuv nutqiy aktlarning sun'iy ravishda ko'paytirilishiga yo'l qo'ymasdan, bir tomondan, fundamental illokutiv yo'nalishni, ikkinchi tomondan esa uning konkret nutqiy vaziyatdagi semantik va funksional xususiyatlarini alohida tavsiflash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, pragmalingsvistik va interpretativ tahlil usullaridan foydalanildi. Nutqiy birliklarning pragmatik maqomini belgilashda grammatik shaklning o'zi emas, balki kommunikativ vaziyat, adresant intensiyasi, adresatga yo'naltirilganlik va kontekstual ma'no o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Badiiy nutq materiallari formal-semantik, intentional-kontekstual, adresativ-kommunikativ hamda aksiologik-antropotsentrik mezonlar asosida tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlil natijasida nutqiy akti aniqlashda bitta formal ko'rsatkichga tayanish yetarli emasligi aniqlandi. Pragmatik identifikatsiyada quyidagi to'rt mezon guruhi muhimligi belgilandi:

Mezon	Asosiy ko'rsatkich
Formal-semantik	grammatik shakl, leksik mazmun, modal ko'rsatkich
Intentional-kontekstual	kommunikativ maqsad, vaziyat, kontekst
Adresativ-kommunikativ	adresant–adresat munosabati, yo'naltirilganlik
Aksiologik-antropotsentrik	baho, emotsiya, qadriyat, shaxsiy pozitsiya

Muhokamalar. Mazkur mezonlar nutqiy birlikning shakli bilan uning pragmatik vazifasi o'rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. Masalan, imperativ shakl kontekstga qarab buyruq, iltimos, maslahat yoki iltijo mazmunini ifodalashi, so'roq konstruktsiyasi esa ma'lumot talab qilish bilan birga e'tiroz, baholash yoki mushohadaga undash vazifasini bajarishi mumkin.

Shuningdek, nutqiy aktning fundamental pragmatik maqomi bilan uning konkret semantik ko'rinishini farqlash zarurligi aniqlandi. Ehtirom, faxr, hamdardlik, nasihat, qoralash singari mazmunlar muayyan illokutiv harakatning kontekstual-semantik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi; metafora, takror, ritorik konstruktsiya va personifikatsiya esa ushbu mazmunning ifodalanishini kuchaytiruvchi vositalardir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Nutqiy aktning pragmatik maqomini grammatik shaklning o'zi asosida belgilash yetarli emas; bunda kommunikativ niyat, kontekst va adresativ yo'nalish ham hisobga olinishi zarur.

2. Formal-semantik, intentional-kontekstual, adresativ-kommunikativ va aksiologik-antropotsentrik mezonlarning integratsiyasi nutqiy akti aniqroq identifikatsiya qilish imkonini beradi.

3. Grammatik shakl va illokutiv maqsad o'rtasida to'liq muvofiqlik mavjud emas; ayni konstruktsiya turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik kuch kasb etishi mumkin.

4. Emotsional-baholovchi mazmun, poetik vosita va funksional natijani fundamental nutqiy akt turi bilan aynanlashtirmaslik tasnifning ilmiy izchilligini ta'minlaydi.

5. Antroposentrik mezonlar nutqiy harakatni adresantning maqsadi, qadriyat pozitsiyasi va adresat bilan munosabati asosida tavsiflash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Austin J.L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle J.R. *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
4. Grice H.P. *Logic and Conversation // Syntax and Semantics*. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
5. Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
6. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
7. Hakimov M. *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 2013.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL JISMONIY YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Mansurov Olimjon Odil o'g'li	4
CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLIK BOSQICHIDA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li	11
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Bozorov Aziz Abloqulovich	16
DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI Bozorova Hamida Shukrilloevna	23
CHIZMACHILIK FANINI SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANIB O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Omonova Rayxon	26
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI E.E. Jumayev	31
JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARIGA KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING UYG'UNLASHTIRILGAN METODIK MODEL G'ulomov Nasillo Baxshullo o'g'li	34
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI Mirzayev Toxirjon Turg'unovich	43
ISSIQ IQLIMDA MASHG'ULOT YUKLAMASINI RPE VA YURAK URISH CHASTOTASI YORDAMIDA BAHOLASH I.I. Saidov	55
IMOM ABU HOMID G'AZZOLIIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi	61
RAQAMLI MONITORING VOSITALARI ORQALI YOSH KURASHCHILAR YUKLAMASINI OPTIMALLASHTIRISH Karim Mahramov	67

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi	74
IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi	82
MINIATYURA SAN'ATIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TASVIRIY VOSITALARNING UYG'UNLIGI Nozimova Muhabbat Akram qizi	85
DIGITAL TECHNOLOGY FOR L2 LISTENING DEVELOPMENT: CALL, MALL, CAPTIONS, VR, AND AI Juraboeva Nigina Olimjon kizi	95
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA GIDRATATSIYA TARTIBINING YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING FUNKSIONAL HOLATI VA JISMONIY ISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li	99
GANDBOLCHI TALABA QIZLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA BOSQICHMA-BOSQICH YUKLAMA BERISH METODIKASI Dilnoza I. Yarasheva	105
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI Sarvinoz Iskandar qizi	111
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Saidova Mahbuba Ayubovna	118
BOSHLANG'ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI SPORT GIMNASTIKACHILARDA MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich	127
THE APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL CONCEPT OF JADID SCHOOLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	134
MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Toshova To'ygul Amin qizi	141
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI Urunova Dilafruz Muzafarovna	145
МАКТАБ КЛАСТЕРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН, КОМПЕТЕНЦИЙ ВА РЕСУРСЛАРГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВЛАР Максуда Умаровна Бадалова	153
ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «КОММУНИКАТИВНАЯ	158

КОМПЕТЕНЦИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ: ОТ ЯЗЫКОВОГО ЗНАНИЯ К ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Нуруллаева Гузал Анваровна	
FILOLOGIYA FANLARI	
ОТ ПЕРЕЖИВАНИЯ К СМЫСЛУ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОСВОЕНИЯ ПОЭЗИИ А. АХМАТОВОЙ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОГО И ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	168
NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI Akramova Surayo Renatovna	174
TILNI O'RGANISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING KALIT JIHATLARI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI: RAQAMLI DAVR TILSHUNOSLIGINING YANGI UFQLARI Boymurodova Nishona Yunus qizi	178
IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA "ILM" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna	184
ПУТЬ К СМЫСЛУ ЧЕРЕЗ СИМВОЛ: АВТОРСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА А. БЛОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	189
INGLIZ XALQ ERTAKLARI LINGVOMADANIY-DIDAKTIK MIKROKORPUSINI SHAKLLANTIRISH: TANLASH MEZONLARI VA ANNOTATSIYA MODELI Djabbarova Feruza Azamovna	194
JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA "LA'L" KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI Tavakkal Choriyev	200
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV TOPSHIRIQLARNING TALABALAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna	213
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR Hamdamova Nozima Mukimovna	218
GRAFIK SAVODXONLIKNI BAHOLASHDA ANIMATSION DIAGNOSTIKA VOSITALAR Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	225